O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTIDA YUZAGA KELAYOTGAN LINGVISTIK MUAMMOLAR

Muhammadiyev Tulagan Shavkat o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti
“O‘zbek tili va tillarni o‘qitish” kafedrasi
stajyor o‘qituvchisi
e-mail: tulaganmuhammadiyev282@gmail.com

Annatatsiya: O‘zbek tilshunosligining bugungi kundagi dolzarb muammolari, ularni yuzaga keltirayotgan ijtimoiy, texnologik va madaniy omillar chuqur tahlil etiladi. Xususan, yoshlar orasida adabiy til me’yorlariga amal qilinmasligi, so‘z boyligining qisqarishi, inglizcha va ruscha so‘zlarning ortiqcha qo‘llanishi, til va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik muammosi sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Tilga aralashuv hodisasi “lingvistik aralashuv” sifatida baholanib, uning salbiy oqibatlari yoritiladi. Matnda, shuningdek, yangi fan-texnika yutuqlari, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt bilan bog‘liq tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari – lingvopragmatika, psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi va boshqalar haqida ma’lumot beriladi. Muammoni hal qilish yo‘llari sifatida ona tilini targ‘ib qilish, adabiy tilni ommalashtirish, maktab va internetda adabiy tildan foydalanishni kuchaytirish taklif etiladi. Matnda, shuningdek, an’anaviy va zamonaviy tilshunoslik muammolari farqlanib, hozirgi o‘zbek tilshunosligining vazifalari va istiqbollari belgilab beriladi. Oliy ta’limda fanlararo yondashuv va tizimli tahlil orqali nazariy bilimlarni chuqurlashtirish zarurligi alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlari: o‘zbek tilshunosligi, dolzarb muammolar, lingvistik aralashuv, adabiy til, so‘z boyligi, terminlar tarjimasi, sun’iy intellekt, kompyuter lingvistikasi, lingvopragmatika, psixolingvistika, til va jamiyat, oliy ta’lim, fanlararo yondashuv, raqamli texnologiyalar, tizimli tahlil.

Bugungi yoshlar orasida til odobi me’yorlarining buzilishi, so‘z boyligining qisqarishi, o‘zbek tiliga inglizcha va ruscha so‘zlarning haddan ziyod qo‘llanishi kuzatilmoqda. Bu holat tilni o‘zligidan ayirish xavfini tug‘dirmoqda. Tilshunoslikda bu muammo “lingvistik aralashuv” deb yuritiladi. O‘zbek tilining adabiy tili bilan turli hududiy dialektlar (qashqadaryo, farg‘ona, buxoro, xorazm va b.) o‘rtasidagi farq tobora kuchaymoqda. Ko‘plab yoshlar adabiy til me’yorlarini o‘zlashtirishda qiynalishmoqda. Yangi fan-texnika yutuqlari tufayli yangi so‘zlar paydo bo‘lmoqda. Ammo bu so‘zlar o‘zbek tiliga to‘g‘ri tarjima

qilinmayapti yoki umuman tarjima qilinmasdan qo‘llanmoqda. Bu esa til boyligiga salbiy ta’sir qiladi. Tilshunoslikdagi dolzarb muammolar – bu nafaqat lingvistik masalalar, balki jamiyat taraqqiyoti, ma’naviy yuksalish, madaniyat va siyosat bilan uzviy bog‘liq muammolardir. Bu muammolarning yechimi uchun:

- Ona tilining targ‘ibotini kuchaytirish;
- Adabiy tilni ommalashtirish;
- Terminlarni o‘zbek tiliga moslashtirish;
- Internetda adabiy tilda yozilgan kontentni ko‘paytirish;
- Maktablarda so‘z boyligini oshirishga qaratilgan darslarni ko‘paytirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Til – millatning yuragi, uni asrash esa har bir fuqaroning burchidir. O‘zbek tilining an‘anaviy tilshunosligi zaminida shakllangan, taraqqiyot yo‘lini tanlagan va belgilangan maqsad asosidagi vazifalarini muvaffaqiyatli ado etgan o‘zbek tilshunosligining hozirgi holati yangi yo‘nalishlarning shakllanishini taqozo qilmoqda. Ular diqqat-markazida lison-nutq masalasini turli daraja va ko‘rinishda namoyon qiluvchi til va jamiyat, til va madaniyat, til va shaxs, milliy til va milliy tafakkur, til va sun‘iy intellekt kabi substansial asoslarda hal qilinuvchi muammolar turadi. Jahon tilshunosligida XX asr so‘ngida shakllanib, jadal rivojlanayotgan fanning yangi paradigmalari lingvopragmatika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, lingvokognitologiya, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi ilg‘or fan yo‘nalishlari aynan shu masalalar tadqiqi bilan shug‘ullanmoqda. Istiqlol natijasi o‘laroq, o‘zbek tilshunosligi tom ma‘noda mustaqil milliy fan sifatida o‘zini namoyon qildi. Eng muhimi, tilimizning milliy tabiatiga to‘laqonli ilmiy nazariy baho berildi. Qo‘lga kiritilgan nazariy yutuqlar til qurilishini o‘rganishdan uning voqelanish xususiyatlarining keng qamrovli tadqiqiga o‘tish uchun katta imkoniyatdir. Bu esa o‘zbek tilini yangi va zamonaviy, ilg‘or va samarador tadqiq usullari asosida tekshirishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Bugungi kunda tilshunoslikning ayrim juz‘iy muammolariga dolzarblik tusi berilayotgani holda, mavjud ilmiy salohiyat muhim muammolar echimiga yo‘naltirilmayapti, sohaning istiqbolini belgilaydigan asosiy vazifalar hamon kun tartibidan chetda qolmoqda. Shuning uchun ushbu kursda o‘zbek tilshunosligining yangi asrda hal etilishi lozim bo‘lgan, to‘la ma‘noda dolzarb muammolari haqida so‘z boradi. Tilshunoslikning dolzarb muammolari kishilik jamiyatining amaliy ehtiyojlari ta‘sirida yuzaga kelgan tilshunoslikning mustaqil bir sohasidir. Kishilik jamiyatining taraqqiy eta borishida O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari ychishi lozim bo‘lgan masalalari ham, shu masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan yo‘l yo‘riqlari va metodlari ham o‘sib, rivojlanib boradi. Bu muammolarni an‘anaviy hamda yangi muammolarga ajratish mumkin. An‘anaviy muammolar qatoriga tilshunoslik tomonidan asrlar davomida yechib kelingan, lison hamda nutq hodisalarini imkoniyat doirasida tadqiqi va hamisha jamiyatning o‘quv-o‘qituv ishlarini talab darajasida tashkil etishga yo‘naltirilgan amaliy ishlarni kiritish mumkin. Yangi muammolar qatorida quyidagilarni sanash mumkin: mashinaviy tarjimaning lingvistik asoslarini yaratish, informatsion tillar va ularning inson tabiiy tiliga munosabati, terminologiyasi va uning axborot izlashga munosabati, hujjatlarni avtomatik indekslashtirish, hujjatlarni avtomatik tarzda referatlash va annotatsiyalash, axborot tizimi ishlarini lingvistik jihatdan ta‘minlash, avtomatik axborot izlash uchun lug‘at tuzish, matnni avtomatik sintezlash va lisonning nutqiy voqelanishining mukammal tadqiqi kabilar. O‘zbek nomli etnosotsial jamoa, ya‘ni millatga taalluqli, uning boy tarixini o‘zida aks ettiruvchi, kundalik aloqa-muloqat ehtiyojini to‘lato‘kis qondiruvchi, uni birlashtiruvchi, jipslashtiruvchi o‘zbek tilining tabiatini, shakllanish, taraqqiy topish bosqichlari kechagi va bugungi holati, ertangi istiqboli xususida aniq hamda ravshan tasavvurga ega o‘zbek tilshunosligi uchun hozirgi zamon jahon

tilshunosligida yuz berayotgan o‘zgarishlar yot emas. Hech ikkilanmay ta‘kidlash lozimki, o‘zbek tili tizimida nafaqat qardosh turkiy tillarga oid xususiy jihatlar, shuningdek dunyoning besh qit‘asida mavjud mustaqil tillarga doir umumiy qonuniyatlar ham qaror topgan. Shu nuqtayi nazardan o‘zbek tilshunosligi bosib o‘tgan murakkab yo‘lga ilmiy yondashishda, obyektiv baho berishda unga xos qonuniyatlarni umumlingvistik hodisalar, jarayonlardan ajratib qo‘ymaslik yoki yulib olmaslik talab qilinadi. O‘zbek tilshunosligi so‘nggi yillar davomida ma‘lum darajada o‘sib, taraqqiyot ta‘sirida paydo bo‘layotgan masalalarni hal etishga diqqatini qaratish, Jahon tilshunosligidagi singari o‘zbek tilshunosligida ham endilikda e‘tibor til strukturasi muammosidan tilning inson faoliyatining turli sohalaridagi vazifasiga ko‘cha boshladi. Tilning sistem xarakteri, til birliklarining paradigmatik va sintagmatik xususiyatlari, o‘zaro munosabatini atroflicha tahlil etish kun tartibidan barqaror joy oldi. Bugun zamonaviy jahon tilshunosligidan muhim o‘rin olayotgan jihat bu inson faoliyatining turli sohalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ilmiy ma‘lumotlar singishi va o‘zaro ta‘siri hisoblanadi. Lingvistikaning turli fan sohalari bilan munosabatga kirishi natijasida tilshunoslikda etnolingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, matematik lingvistika, kompyuter tilshunosligi kabi paydo bo‘lgan yangi yo‘nalishlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida talabalarga puxta bilim berish, yosh iste‘dodlarni mazkur sohalarga dadil yo‘llash berish lozim. Bugun oliy o‘quv maskanlarida o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida unga tizim sifatida yondashish, tizim qonunyatlari negizida til va uning birliklari hamda hodisalarini talqin etish, shakl va mazmun asimmetriyasi, ona tilining funksional ko‘pqirraligi haqida chuqur ilm berish, nazariy jihatdan ytuk lingvistlar tayyorlashda tarixiy tilshunoslik tutgan mavqeini aniq belgilash zarur. Oliy ta‘lim tizimini tashkil etishning ustuvor vazifalaridan biri tarzida talaba bilimining sintezi, fanlararo aloqa omilining e‘tirof etilishdir.

Adabiyotlar

1. Rahimov G‘. (2020). Zamonaviy tilshunoslik asoslari Toshkent.
2. Jo‘raev A. (2019). Til madaniyati va uslubiy mezonlar Samarqand.
3. O‘zbekiston Respublikasi (1995) “Davlat tili haqida”gi Qonuni.
4. Usmonova Sh. (2019). Lingvokulturologiya Toshkent.
5. Rasulov R. (2020) Kelajak til sohiblariniki –Toshkent: Til va adabiyot ta’limi.
6. Internet manbalari: lex.uz, til.gov.uz, ziyouz.com